

3. Tursunov, I. (2020). O'zbekistonda kichik biznes sub'ektlarini soliqlar orqali qo'llab-quvvatlash masalalari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 4, 45-52.
4. Atawodi, O. W., & Ojeka, S. A. (2012). Relationship between tax policy, growth of SMEs and the Nigerian economy. International Journal of Business and Management, 7(13), 125-135.
5. Mayburov, I. A., & Ivanov, Y. B. (2019). Encyclopedia of Tax Incentives in the Global Economy. Moscow: UNITY-DANA.
6. Karimov, A. (2021). O'zbekistonda kichik biznes soliq yukini optimallashtirish masalalari. Moliya va bank ishi, 3, 78-85.
7. Bird, R. M. (2018). Tax policy and economic development. Johns Hopkins University Press.
8. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi. (2023). O'zbekistonda soliq siyosati: hozirgi holat va istiqbollar. Toshkent.
9. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2023). O'zbekiston Respublikasining 2022-yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yakunlari. Toshkent.
10. Popov, V. V. (2020). Tax incentives for small and medium-sized businesses: international experience and Russian practice. Tax policy and practice, 5, 36-43.

RAQAMLI IQTISODIYOTGA O'TISH JARAYONIDA MILLIY VALYUTA BARQARORLIGINI TA'MINLASH: XALQARO TAJRIBA VA MAHALLIY YECHIMLAR

Kurbonov Baxodir Ergashevich

Qo'qon universiteti Andijon filiali ijtimoiy-gumanitar va pedagogika
fakulteti dekani, p.f.f.d., (PhD)

Abdulazizova Marhaboxon Maribjon qizi

Moliya va moliyaviy texnologiyalar yo'nalishi, 1 bosqich talabasi

Abstract. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonida milliy valyuta barqarorligini ta'minlash masalalari o'rganilgan. Maqolada xalqaro tajribalar va milliy valyuta barqarorligini ta'minlashning zamonaviy usullari tahlil qilingan. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi, markaziy banklarning raqamlashtirish sharoitidagi roli va O'zbekistonda milliy valyuta barqarorligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra raqamli transformatsiya sharoitida milliy valyuta barqarorligini ta'minlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Key words: raqamli iqtisodiyot, milliy valyuta barqarorligi, markaziy bank, monetar siyosat, raqamli transformatsiya, valyuta siyosati, O'zbekiston.

Introduction

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayoni global tendentsiyaga aylanib, iqtisodiy munosabatlarning barcha sohalarini transformatsiya qilmoqda. Bu jarayon mamlakatlar monetar siyosati va milliy valyutalar barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli texnologiyalar, blokcheyn, kriptovalyutalar va markaziy banklarning raqamli valyutalarining (CBDC) rivojlanishi an'anaviy pul munosabatlari tubdan o'zgartirmoqda [1].

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda raqamli iqtisodiyotga o'tish bo'yicha islohotlar jadal sur'atlarda olib borilmoqda. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida mamlakatda raqamli to'lov tizimlari, elektron tijorat va innovatsion moliyaviy xizmatlar rivojlantirilmoqda. Biroq, raqamli transformatsiya sharoitida milliy valyuta – so'm barqarorligini ta'minlash masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda [2].

Ushbu tadqiqotning maqsadi raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonida milliy valyuta barqarorligini ta'minlash bo'yicha xalqaro tajribani o'rganish va O'zbekiston uchun samarali yechimlarni ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu tadqiqot adabiyotlar tahlili metodologiyasiga asoslangan bo'lib, mavzuga oid mahalliy va xorijiy ilmiy maqolalar, markaziy bank hisobotlari, xalqaro moliyaviy tashkilotlar ma'lumotlari va normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilingan.

Mishkin [3] o'z tadqiqotlarida raqamli iqtisodiyot sharoitida markaziy banklarning monetar siyosatini amaliyotini o'rganib, an'anaviy instrumentlar transformatsiyasi va yangi vositalarning paydo bo'lishi haqida xulosalar keltirib o'tgan. Uning fikriga ko'ra, raqamli transformatsiya monetary siyosat transmissiya mexanizmiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Bordo va Levin [4] markaziy bank raqamli valyutalarining milliy valyuta barqarorligiga ta'sirini o'rganib, CBDC joriy etilishi natijasida monetar siyosat samaradorligi oshishi mumkinligini ta'kidlashgan. Biroq, bu jarayonda risklarni ham inobatga olish zarurligi qayd etilgan.

O'zbekistonlik olimlardan Vaxabov va Rasulov [5] raqamli iqtisodiyot sharoitida milliy valyuta kursini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish masalalarini o'rganib, mamlakatda valyuta siyosatining institutsional asoslarini mustahkamlash bo'yicha tavsiyalar berib o'tgan.

Xalqaro Valyuta Fondining hisobotlarida [6] raqamli transformatsiya sharoitida rivojlanayotgan mamlakatlar milliy valyutalarining barqarorligini ta'minlash bo'yicha tavsiyalar keltirilgan. Hisobotlarda valyuta siyosati instrumentlarini diversifikatsiyalash, moliyaviy bozorlar monitoringini kuchaytirish va valyuta zaxiralarini boshqarish samaradorligini oshirish zarurligiga alohida e'tibor qaratilgan.

Bank for International Settlements (BIS) tadqiqotlarida [7] raqamli iqtisodiyotda markaziy banklarning o'zgaruvchi roli va innovatsion yondashuvlar tahlil qilingan. Ular raqamli texnologiyalarning pul-kredit siyosati mexanizmlariga ta'siri, raqamli to'lov tizimlari va valyuta kursi barqarorligini ta'minlash masalalarini o'rganishgan.

Results and discussions

Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonida milliy valyuta barqarorligini ta'minlash uchun mamlakatlar turli strategiyalarni qo'llamoqda.

Yevropa Markaziy Banki raqamli yevroni joriy etish loyihasini amalga oshirmoqda, bu orqali raqamli transformatsiya sharoitida yevroning barqarorligini ta'minlashga harakat qilmoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida pul massasini samarali boshqarish, moliyaviy texnologiyalar rivojlanishining inflyatsiyaga ta'sirini monitoring qilish va blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish orqali monetar siyosat instrumentlarini takomillashtirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda [8].

Singapur tajribasi ham e'tiborga molik, chunki bu mamlakat "Smart Nation" dasturi doirasida moliyaviy texnologiyalarni faol joriy etmoqda. Singapur Monetar Agentligi (MAS) raqamli iqtisodiyot sharoitida milliy valyuta barqarorligini ta'minlash uchun innovatsion yondashuvlarni qo'llamoqda. MAS regulativ sandbox orqali yangi moliyaviy texnologiyalarni sinab ko'rish va ularni milliy valyuta barqarorligiga ta'sirini baholash imkoniyatiga ega [9].

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki so'nggi yillarda raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha faol islohotlarni amalga oshirmoqda. 2019-yilda valyuta bozorini erkinlashtirish, 2020-yilda inflyatsion targetlash rejimiga o'tish va 2021-yildan boshlab raqamli to'lov tizimlarini rivojlantirish strategiyasi milliy valyuta barqarorligini ta'minlashga qaratilgan muhim qadamlar hisoblanadi.

Ammo raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonida quyidagi muammolar mavjud:

1. Moliyaviy savodxonlik darajasining pastligi
2. Raqamli to'lov tizimlariga ishonchning yetarli emasligi
3. Kiberhavfsizlik masalalarining dolzarbligi
4. Raqamli transformatsiya sharoitida monetar siyosat instrumentlarini modernizatsiya qilish zaruriyati

O'zbekistonda so'mning barqarorligini ta'minlash uchun quyidagi yechimlarni taklif etish mumkin:

1. Markaziy bankning raqamli valyutasini (O'zbekiston so'mi CBDC) bosqichma-bosqich joriy etish, bu orqali monetar siyosat samaradorligini oshirish va valyuta ayirboshlash operatsiyalarini shaffoflashtirish.
2. Raqamli to'lov infratuzilmasini rivojlantirish, xususan, milliy protsessing markazini takomillashtirish, raqamli identifikatsiya tizimlarini joriy etish va moliyaviy xizmatlar interoperabelligini ta'minlash.
3. Valyuta zaxiralarini boshqarish samaradorligini oshirish, xususan zamonaviy risk-menejment usullarini qo'llash va zaxiralarni diversifikatsiyalash.
4. Big Data texnologiyalaridan foydalanib, valyuta bozori tahlili va prognozlashtirish tizimlarini takomillashtirish [10].
5. Moliyaviy texnologiyalarni tartibga solish (RegTech) va nazorat qilish (SupTech) uchun raqamli platformalarni yaratish.

Conclusion

Raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonida milliy valyuta barqarorligini ta'minlash murakkab vazifa bo'lib, bu jarayonda milliy valyuta qiymatiga ta'sir etuvchi omillarni chuqur tahlil qilish va tegishli strategiyalarni ishlab chiqish talab etiladi.

Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya sharoitida milliy valyuta barqarorligini ta'minlash uchun markaziy banklarning rolini qayta ko'rib chiqish, monetar siyosat instrumentlarini modernizatsiya qilish va raqamli moliyaviy infratuzilmani rivojlantirish zarur.

O'zbekiston uchun milliy valyuta barqarorligini ta'minlashda raqamli transformatsiya imkoniyatlaridan samarali foydalanish, markaziy bank raqamli valyutasi loyihasini ishlab chiqish, moliyaviy texnologiyalarni tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish va valyuta bozori monitoring tizimlarini raqamlashtirish tavsiya etiladi.

Milliy valyuta barqarorligi raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy o'sish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning asosiy shartlaridan biri bo'lib qoladi. Bunda xalqaro tajribani o'rganish va milliy xususiyatlarni inobatga olgan holda samarali yechimlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Carstens, A. (2023). Monetary policy in the digital era: New challenges and opportunities. Bank for International Settlements Papers, 12(4), 45-62.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni.
3. Mishkin, F. (2022). The Economics of Money, Banking, and Financial Markets in the Digital Age. Journal of Monetary Economics, 84(3), 134-153.
4. Bordo, M., & Levin, A. (2023). Central Bank Digital Currency and the Future of Monetary Policy. NBER Working Paper Series, 23711.
5. Vaxabov, A., & Rasulov, T. (2021). O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot sharoitida valyuta siyosatini takomillashtirish masalalari. Iqtisodiyot va Innovatsion Texnologiyalar, 3, 78-92.
6. International Monetary Fund. (2022). Digital Transformation and Monetary Stability in Emerging Markets. IMF Staff Discussion Note, 22/04.
7. Bank for International Settlements. (2023). Central banks and financial stability in the digital era. BIS Papers, 123.
8. European Central Bank. (2022). Digital Euro: A Report on the Digital Euro Project. ECB Occasional Paper Series, 274.
9. Monetary Authority of Singapore. (2022). Financial Digitization and Currency Stability: Singapore's Approach. MAS Occasional Paper, 16.
10. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2024). Raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida monetar siyosat. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tahliliy sharhi, 2.

АКЦИЯДОРЛИК ЖАМИЯТЛАРИДА ПУЛ ОҚИМЛАРИНИ БОШҚАРИШНИНГ АҲАМИЯТИ

И.С.Фозилжонов

Тошкент халқаро университети Бизнес ва инновацион таълим факультети декани,
и.ф.ф.б.д, доцент

Abstract. Ушбу мақолада акциядорлик жамиятларида пул оқимларини бошқаришнинг аҳамияти ва бу жарённи ташкил этишнинг илмий назарий асослари кенг очиб берилган. Бундан ташқари, корхона пул оқимларининг шаклланиш йўналишлари, уларнинг ўзига хос хусусиятлари атрофлича ёритилган.

Key words: пул ресурслари, капитал, дебиторлик ва кредиторлик қарзлари, пул оқимларини прогноз қилиш, амортизация ҳаракатлари.

Introduction

Глобаллашув шароитида мулкчиликнинг акциядорлик шаклига эга хўжалик юритувчи субъектлар учун пул ресурслари чекланган ҳисобланади, шунинг учун корхоналарда пул оқимларини самарали бошқариш механизмини яратиш муҳим аҳамиятга эга. Пул оқимлари назарияси корхоналардаги пул оқимларини аниқлаш, баҳолаш ва таҳлил қилишга қаратилган назария ҳисобланади. Пул оқимлари назарияси фақатгина ривожланган мамлакатларда эмас, балки ривожланаётган мамлакатлар иқтисодчи олимлари асарларида ҳам ўз аксини топмоқда. Бироқ корхоналарнинг пул оқимларини прогноз қилиш бўйича олиб борилаётган тадқиқотлар бугунги кунда жуда кам.

Пул ресурсларини самарали бошқариш корхоналарнинг иқтисодий фаровонлигининг таъминловчи муҳим омили ва келажақда барқарор ривожланиш кафолати ҳисобланади. Пул